

Qabul qilindi: 06.07.2024 Chop etildi: 30.08.2024

UDK:373.3.091.3:37.037.5

**ПРОБЛЕМЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ
КОМПЕТЕНЦИИ САМОРАЗВИТИЯ БУДУЩИХ
УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ**

Кутлиева Ферузaxon Юсуповна, преподаватель кафедры
“Педагогика и методика начального образования”
Ургенчского инновационного университета, исследователь
УрГУ

**PROBLEMS OF IMPROVING THE COMPETENCE
OF SELF-DEVELOPMENT OF FUTURE PRIMARY
SCHOOL TEACHERS**

Kutliyeva Feruzakhon Yusupovna, Teacher of the department of
“Pedagogy and Methods of Primary Education” of Urgench
Innovation University,
independent researcher of UrSU

**BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINFI
O‘QITUVCHILARINING O‘Z-O‘ZINI
RIVOJLANTIRISH KOMPETENSIYASINI
TAKOMILLASHTIRISHDAGI MUAMMOLAR**

Kutliyeva Feruzaxon Yusupovna,
Urganch innovatsion universiteti,
“Pedagogika va boshlang‘ich ta’lim metodikasi”
kafedrasi o‘qituvchisi, UrDU mustaqil tadqiqotchisi



e-mail:

feruzaxonkutlieva@gmail.com[com](https://orcid.org/0009-0007-9590-4000)ORCID ID 0009-0007-
9590-4000

Аннотация: В данной статье говорится о совершенствовании компетентности саморазвития учителей начальных классов. При этом основное внимание акцентируется на необходимости формирования у педагогов рефлексивных умений, в результате которых формируются умения и мотивы саморазвития своей будущей профессии, а также определяется сущность понятия «саморазвитие». Анализируется роль саморазвития в профессиональной подготовке будущего учителя. Выделены основные способности деятельности по саморазвитию будущего учителя, а также средства и методы их формирования.

Ключевые слова: образование, совершенствование, будущий учитель начальных классов, успех, профессиональный рост, специалист, саморазвитие, педагогическая деятельность.

Annotation: This article talks about improving the self-development competence of primary school teachers. At the same time, the main attention is focused on the need to develop reflexive skills in teachers, as a result of which the skills and motives for self-development of their future profession are formed, and the essence of the concept of “self-development” is determined. The role of self-development in the professional training of a future teacher is analyzed. The main abilities of self-development activities of the future teacher are highlighted, as well as the means and methods of their formation.

Keywords: education, improvement, future primary school teacher, success, professional growth, specialist, self-development, pedagogical activity.

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinfi o‘qituvchilarining o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasini takomillashtirishi haqida so‘z boradi. Bunda asosiy e‘tibor o‘qituvchilarning refleksiv ko‘nikmalarini, buning natijasida kelajakdagi kasbi bo‘yicha o‘z-o‘zini rivojlantirish ko‘nikmalari va motivlarini shakllantirish zarurligiga qaratiladi va “o‘z-o‘zini rivojlantirish” tushunchasining mohiyati

aniqlanadi. Bo'lajak o'qituvchining kasbiy tayyorgarligida o'z-o'zini rivojlantirishning o'rni tahlil qilinadi. Bo'lajak o'qituvchining o'z-o'zini rivojlantirish faoliyatining asosiy qobiliyatlari, shuningdek ularni shakllantirish vositalari va usullari yoritilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, takomillashtirish, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi, muvaffaqiyat, kasbiy o'sish, mutaxassis, o'z-o'zini rivojlantirish, pedagogik faoliyat.

KIRISH / ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION

Bugungi kunda oliy ta'lim tizimiga qo'yiladigan ijtimoiy talablardan biri rivojlanayotgan jamiyatda uchrashi mumkin bo'lgan turli xil vaziyatlarda mustaqil ravishda mas'uliyatli qarorlar qabul qila oladigan, ularning oqibatlarini bashorat qila oladigan, hamkorlik qilishga qodir, harakatchanlik, konstruktivlik bilan ajralib turadigan, tashabbuskor mutaxassislarni tayyorlash. O'z navbatida, ta'limning asosiy maqsadi - bu mehnat bozorida raqobatbardosh, o'z kasbini yaxshi biladigan va tegishli faoliyat sohasiga yo'naltirilgan malakali mutaxassisni tayyorlash, o'z mutaxassisligi bo'yicha jahon standartlari darajasida samarali ish, doimiy kasbiy o'sishga, ijtimoiy va professional harakatchanlikka ega mutaxassislarni tayyorlashdir. Mutaxassislarni tayyorlashga qo'yiladigan talablar shuni ko'rsatadiki, uning kelajakdagi kasbiy faoliyati va hayotining muvaffaqiyati va samaradorligi ta'lim muassasining bitiruvchisi kasbiy faoliyatga qanday kirishiga, uning faol ijodiy faoliyatga qanchalik tayyorligiga, ehtiyojlarini shakllantirganiga, o'zini takomillashtirish va kasbiy o'sishga bog'liq hisoblanadi. Mutaxassislar tayyorlash - bu turli xil omillar ta'sirida yuzaga keladigan uzoq, murakkab, qarama-qarshi jarayon bo'lib, ularning eng muhimlaridan biri ularni ijodiy faoliyatiga tayyorlashdir. Mutaxassisning muvaffaqiyatli ilmiy faoliyati nafaqat uning ilmiy tajribasi, balki uning kasbiy aloqalari bilan ham belgilanadigan eng katta jarayondir. Bo'lajak mutaxassislarda mustaqil ijodiy faoliyatni olib borish ko'nikmalarini shakllantirish ya'ni, o'quv va ilmiy adabiyotlar bilan ishlashni o'rgatish, ma'lumot to'plash va tahlil qilish, tizimlashtirish, faktlarni umumlashtirish va konferensiyalarda ma'ruzalar bilan qatnashishlarini tashkil etish lozim.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD / ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS

Hozirgi tezkor sur'atlarda rivojlanayotgan ta'lim sohasida ayniqsa, zamonaviy oliy ta'lim

bitiruvchilarining keng qamrovli kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish vazifasini o'z oldiga qo'ymoqda va mamlakatimiz oliy o'quv yurtlari zamonaviy mehnat bozorida talabga ega bo'lgan raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashdan manfaatdor. Universitet bitiruvchilari — o'z sohasining bo'lajak mutaxassislari o'qish davomida nafaqat kasbiy sohada o'zini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlari, balki yangi kasbiy ahamiyatga ega fazilatlarni rivojlantirishlari va yanada bu borada o'z ustida ishlashlari kerak. Ushbu maqsadga erishish uchun pedagogik vositalarning butun majmuasi, shu jumladan, malaka talablariga mos keladigan fazilatlarni o'zlashtira oladigan talabalarni o'qitishda ham foydalaniladi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarni kasbga tayyorlashning bunday tizimini tashkil etish kasbiy kompetensiyani, ya'ni talabalarda pedagogik kompetentlikni shakllantirishga yordam beradi.

I. V.Jijina tomonidan o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, yosh o'qituvchilar o'zlarining pedagogik faoliyatining boshida kichik maktab o'quvchilari bilan pedagogik jihatdan mos munosabatlarni o'rnatishda katta qiyinchiliklarga duch kelishadi [1], bu bo'lajak o'qituvchining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish zarurligini ta'kidlaydi, uning tashqi ifodasi bu barcha turdagi kompetensiyalarning umumiy yo'nalishi bo'lib, ular muloqot, ishonch, qo'llab-quvvatlash, o'zaro tushunish, maktab o'quvchilarining kognitiv o'zini o'zi rivojlantirish jarayoniga jalb qilishdir. Talabani kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishning ichki asosi bu "pedagogik masofani belgilashga sezgirlik" sifatidir [2].

MUHOKAMA / ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston – 2030 strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoniga muvofiq, shuningdek, "O'zbekiston – 2030" strategiyasining "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim

yili”da sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirilishini ta‘minlash maqsadida: “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida quyidagi ustuvor yo‘nalishlar belgilanganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin: har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish; barqaror iqtisodiy o‘sish orqali aholi farovonligini ta‘minlash; suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish; qonun ustuvorligini ta‘minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish; — xavfsiz va tinchliksevar davlatl tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirishligi belgilab berilgan. Biz hamjamiyatimizga xizmat qilishga sodiqmiz va zamonaviy, doimiy o‘zgarib turadigan hamjamiyatning markazida O‘zbekistonning asosiy qadriyatlarini qabul qilish yotadi, deb ishonamiz. Maktabda bizning farzandlarimiz O‘zbekiston qadriyatlarini, ta‘lim tizimini chuqur tushinishlari va ularga rioya qilishlarini ta‘minlash, ular zamonaviy hayotga tayyor bo‘lishlari uchun boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari mas‘uliyatli bo‘lishi lozimdir.

Bu maqsadlarni amalga oshirishda, Prezidentning “Pedagogik ta‘lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta‘lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq 2022/2023-o‘quv yilidan boshlab kunduzgi ta‘lim shaklidagi 2–4-bosqich talabalar uchun haftalik o‘quv mashg‘ulotlar “4+2”, jumladan darslarning 4 kuni OTMda, 2 kuni umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida amaliyot o‘tash tartibida olib borilmoqda. Bo‘lajak o‘qituvchining kompetensiyasini rivojlantirish uning analitik va prognostik tarkibiy qismlarini aktuallashtirish bilan bog‘liq. Ushbu bosqichni amalga oshirish bosqichlari ketma-ketligi “o‘z-o‘zini anglashni ta‘kidlash, ichki muloqotni faollashtirish, o‘z-o‘zini bilishni ongli ravishda shakllantirish va xulq-atvorning istalgan elementlarini birlashtirishga aylantirish” o‘rtasidagi munosabatlar sifati bilan belgilanadi [3].

NATIJALAR / РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodiy kompetentligini rivojlantirish bo‘yicha shakllantiruvchi tajriba ishtirokchisi bo‘lgan har bir o‘qituvchining mustaqil ta‘lim faoliyatining individual traektoriyasi o‘z-o‘zini bilish sodir bo‘ladigan, ijodiy faoliyatga bo‘lgan ehtiyojni aniqlash ishi amalga oshadigan boshlang‘ich

nuqtadan, ijodiy faoliyatga jalb etilganlik va ijodiy shakllanish uchun o‘z-o‘zini tashkil etish darajasigacha tashkil topadi. Psixologik nuqtai nazardan, qurshab turgan dunyoning hali insoniyatga ma‘lum bo‘lmagan obyektiv yangi qonuniyatlarini kashf etadigan olimning ijodiy faoliyati va faqat o‘zi uchun yangi narsalarni kashf etadigan o‘qituvchining mahsuldor tafakkuri orasida jiddiy farq yo‘q, chunki bularning asosida psixik qonuniyatlar yotadi. Shu sababli bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mustaqil ta‘lim faoliyatining shakl, usul va vositalarining bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun mavjud bo‘lgan turlariga o‘xshashlari tanlandi. Biroq, kashfiyotga olib keladigan aqliy faoliyat darajasi turlicha bo‘lgani kabi, ularda yangi bilimlarni topish shart-sharoitlari ham farq qiladi. Bunday farqlarni aniqlash maqsadida, maktab o‘quvchilarining shunga o‘xshash faoliyatlarini aksariyat tadqiqotchilar «mahsuldor faoliyat» atamasi bilan atashni afzal biladilar, va «ijodiy faoliyat» atamasini esa inson bilimlari uchun tubdan yangi, o‘ziga o‘xshashi bo‘lmagan asl nimadir kashf etuvchi shaxslarning tafakkur faoliyatining eng yuqori pog‘onasini anglash uchun ishlatishadi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodiy kompetentligini rivojlantirish mustaqil ta‘lim faoliyatiga ijodiy vazifalar, nostandart vaziyatlar va ularga tegishli shakl, usul va vositalarni kiritishni talab qiladi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodiy kompetentligini rivojlantirishda professional ijodiy ehtiyojlar va motivatsiya muhim rol o‘ynaydi. Ijodiy faoliyat xarakteri; o‘qituvchilarning nostandart vazifalarni tanlashda bevosita ishtiroki, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodiy kompetentligining qadriyat-motivatsion, konstruktiv va reflektiv-maqsdali komponentlari yangilanadigan shaxs uchun ahamiyatli vaziyatlardan foydalanish boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodiy kompetentligini rivojlantirish uchun belgilovchi omillar hisoblanadi.

O‘qituvchining pedagogik malakasi — bu tajriba, nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar va muhim shaxsiy fazilatlarini birlashtirishga asoslangan murakkab individual psixologik ta‘lim demakdir. Kompetensiyalarni egallash uchun talaba ushbu ongli faoliyatning subyektiga aylanishi zarur. Kompetensiyani uni amalga oshirishning o‘ziga xos

shartlaridan ajratib bo'lmaydi. U bir vaqtning o'zida ma'lum bir faoliyat sharoitiga moslashtirilgan bilim, ko'nikma va xulq-atvor munosabatlarini safarbar qilishni bog'laydi. Qaysidir ma'noda bu barkamollik belgisi hamdir. Bunda barkamol bo'lish degani esa: olingan bilim va tajribani muayyan vaziyatda safarbar qilish qobiliyati degan jumlar bilan barobar. Shunday qilib, kasbiy kompetensiyani o'rganishga bag'ishlangan keng ko'lamli tadqiqotlar, uning rivojlanish xususiyatlari ushbu muammoning zamonaviy pedagogika fani va amaliyoti uchun ahamiyatli ekanligini va tadqiqotchilarni qiziqtirayotganini ko'rsatadi. Muayyan kompetensiyalarni shakllantirish uchun ular o'zini namoyon qiladigan tegishli sharoitlar zarur. Kompetensiya boshlang'ich darajadan boshlab rivojlanadi, boyitiladi, kengaytiriladi yoki mustahkamlanadi. Shu bilan birga, pedagogik kasbiy mahorat individual faoliyat uslubi bilan individual xususiyatlarni o'z-o'zini anglashning yuqori darajasi bilan bog'liqdir.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy kompetentligini rivojlantirish texnologiyasi tashxislash nazariyasini batafsilroq ko'rib chiqamiz. Demak, tashxis nazariyasida ta'lim muassasasi psixologi ijodxonada ishtirok etish istagini bildirgan o'qituvchilar (eksperimental guruh) va boshlang'ich maktablarning ko'ngilli o'qituvchilari guruhi (nazorat guruhi) bilan ishlaydi va ularda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining ijodiy kompetentligining rivojlanishining dastlabki rivojlanganlik darajasini va rivojlanishi uchun mavjud shart-sharoitlarni aniqlaydi. Tashxis qo'yish o'rganilayotgan hodisaning ma'lum me'yor va mezonlarga muvofiqligini o'rnatish imkonini beradi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining dastlabki ijodiy kompetentligini rivojlantirish darajasini diagnostika qilish va baholash jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy kompetentligini rivojlantirish jarayonini optimallashtirish uchun zarur bo'lgan pedagogik shart-sharoitlar aniqlashtiriladi; ijodiy faoliyatni rivojlantirishning xususiyatlari va uning ayrim psixologik-pedagogik mexanizmlari o'rganiladi. Xususan, bu bosqichda olingan tashxisiy

ma'lumotlar keyingi loyihalashtirish bosqichi uchun «kirish» ma'lumotlari bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA/ЗАКЛЮЧЕНИЕ/CONCLUSION

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy faoliyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish faoliyati o'quv jarayonining shakllaridan biri bo'lib, unda o'qitish va amaliyot muvaffaqiyatli birlashtiriladi. Ilmiy ishlar doirasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining birinchi navbatda ijodiy faoliyatning birinchi ko'nikmalarini egallaydi, so'ngra amaliyot bilan bog'liq bo'lgan u yoki bu tarzda olingan nazariy bilimlarni ijodiy faoliyatga kiritishni boshlaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI / ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Жижина И. В. Психологические особенности развития фасилитации педагога: дис. канд. психол. наук: 19.00.07. М., 1999. 133 с.
2. Засорина Л. Н. Развивающее чтение. СПб., 1996. 59 с.
3. Кон И. С. В поисках себя: Личность и её самопознание. М.: Политиздат, 1984. 335 с.
4. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.-T. 2003.
5. Qaytarova N.K. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi va unda boshlang'ich sinf o'qituvchisining roli / «Таълим тизимидаги ислохотлар: олимлар ва ёшлар нигоҳида» мавзусидаги Республика илмий-амалий конференция тўплами // Тошкент, 2022 йил 29 сентябр. 203- б.
6. Asqarova O'. M. Pedagogika.-Toshkent, «Talqin», 2008
7. Rahmatova F. Bo'lajak boshlang'ish sinf o'qituvchilarining ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirish. Jamiyat va innovatsiyalar – Общество и инновации – Society and innovations. Issue – 1 (2021) / ISSN 2181-1415
8. Ulmasovna, D.M.(2022). Pedagogikaning dolzarb muammolari. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(10), 211-212.
9. Bo'ronov M, Qurbaniyozov.G. Pedagogik amaliyot-ixtisoslik kamoloti- Nukus, «Bilim», 1995.